

## YOSHLARNING MA'NAVİYATINI OSHIRISHDA PEDAGOG KADRLARNING O'RNI VA RO'LI

**Egamberdiyev Oyatillox**

FarDU 1- kurs magistranti.

**Muhammadjonova O'g'iloy**

FarDU 2- kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11911696>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada, yoshlarning ma'naviyatini oshirishda pedagoglarning o'rni va ro'li shuningdek, yoshlarimizga yartilib berilayotgan imkoniyatlar haqida va pedagog kadrlarning maqsad va vazifalari haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. Hamda pedagog kadrlarning xorij tajribalaridan foydalanish shar- sharoitlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* jahon, oliy ta'lim, ma'naviyat, salohiyat, innovatsiya, faollik, bilim, Zahira.

## THE ROLE AND ROLE OF TEACHING STAFF IN IMPROVING YOUTH'S SPIRITUALITY

*Abstract.* In this article, the place and role of pedagogues in improving the spirituality of young people, as well as information about the opportunities given to our young people and the goals and tasks of pedagogic staff are presented. Also, information about the conditions of using the foreign experiences of pedagogues was provided.

*Key words:* world, higher education, spirituality, potential, innovation, activity, knowledge, reserve.

## РОЛЬ И РОЛЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКИХ КАДРОВ В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

*Аннотация.* В данной статье представлены место и роль педагогов в повышении духовности молодежи, а также информация о возможностях, предоставляемых нашей молодежи, а также целях и задачах педагогических кадров. Также была предоставлена информация об условиях использования зарубежного опыта педагогов.

*Ключевые слова:* мир, высшее образование, духовность, потенциал, инновации, активность, знания, резерв.

## KIRISH

Jahonda rivojlangan oliy ta'lim tizimida kasbiy faoliyat uchun mutaxassislar tayyorlash yo'nalishlaridan biri sifatida bo'lajak professor-o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash,

ularning individual ijodiy faolligini to'liq namoyon etish, intellektual salohiyatini rivojlantirish, o'z bilimlarini oshirish, innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash muammolari alohida o'rin tutadigan jarayonida o'zlashtirilgan bilim zahiralari, ko'nikma va malakalarni jamlash, ushbu muammolarni muvaffaqiyatli hal etish oliy pedagogik ta'lim tizimini qayta qurish, uning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish, kadrlar tayyorlash mazmunini ta'lim sohasidagi innovatsion tizimning yangi talablariga muvofiq takomillashtirishni taqozo etadi. Pedagogik kadrlar tayyorlash va pedagogik faoliyat bilan bog'liq ta'limotlar eramizgacha yaratilgan asarlarda ham o'z aksini topgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Sharqda zardushtiylik ta'limotining manbai "Avesto" (eramizgacha I asr) da, Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim" (VII asr) va "Hadisi sharif" (Imom al-Buxoriy "Al-jome' as-sahih", IX asr) da, O'rta Osiyo uyg'onish davri mutafakkirlaridan Abu Nasr alFarobiy ("Fozil odamlar shahri", 20-asrning 70-80-yillari), Abu Ali Ibn Sino ("Donishnoma", XI asr), Burxoniddin Zarnudjiy (Ta'lum al-Mutaalallim, XII asr.), Muslihiddin Sa'diy Sheroziy ("Bo'ston", 1257, "Guliston", 1258), Alisher Navoiy ("Mukammal asarlar to'plami" 20 jildlik, 1987-2003) larning badiiy – falsafiy asarlarida, G'arbda Qadimgi Yunoniston va Rimda Demokrit, Suqrot, Aflotun, Arastu, Mark Fabiy Kvintilian, Yan Amos Komenskiy, Adolf Distegverg kabi buyuk faylasuf, pedagog, mutafakkirlarning ta'limotlarida, ma'rifiy-axloqiy asar tarzida maydonga kelib, pedagogik faoliyat va uning mazmuni to'g'risida qimmatli fikrlarni ifodalagan.<sup>1</sup>

Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini moliyalashtirish haqida gapirar ekanmiz, albatta, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning qarorva farmonlariga, shuningdek, yurtimizda qabul qilinayotga ta'limga taalluqli bo'lgan qonularga murojaat qilmaslikning imkoni yo'q deb o'ylaymiz. Dastlab, "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>5</sup>gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tanishib chiqsak. Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida jami 4916 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 9680 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, 211 ta "Barkamol avlod" markazi mavjud bo'lib, ularda jami 400 ming nafardan ortiq pedagog xodim faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash bo'yicha 5 ta davlat pedagogika instituti, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha 14 ta hududiy institut faoliyat ko'rsatmoqda. Pedagogika oliygohi

<sup>1</sup> Дружилов С.А. Профессиональная компетентность и профессионализм педагога: психологический подход. // Сибирь. Философия. Образование. Научно-публицистический альманах: Со РАО, ИПК, Новокузнецк, 2005. -С.90.

bitiruvchisi, nafaqat fuqarolarni bilimli qilib tayyorlash va mamlakat inson kapitalini shakllantirish, shu bilan birga mavjud o'qituvchilik qadriyatlarini asrab-avaylash, rivojlantirish va keyingi avlodga uzatishda ham muhim bo'g'in hisoblanadi. Pedagoglar tayyorlash hamma davrda aniq tarixiy tavsifga ega va shunday bo'lib qoladi.

### **NATIJA VA MUHOKAMALAR**

Keyingi davr Sharq va O'rta Osiyo allomalari, ma'naviyat va ma'rifat darg'alari pedagog kasbi mohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi to'g'risida qimmatli so'zlarni aytganlar. Buni biz Abdulla Avloniy, Oybek, G'afur G'ulom, Abdullo Oripov va kenja avlod ta'limotida yaqqol ko'ramiz. E.A.Texanova bo'lajak pedagogning kasbiy komponentligini tahlil qilar ekan uning bilimi, kasbiy va hayotiy tajribasi, qiziqishlaridan foydalangan holda kasbiy pedagogik faoliyatda uchraydigan real vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qila olish qobiliyatini ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarorida pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish kerakligi asosiy maqsad ekanligi qayd etilgan. 2022- 2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham ushbu mavzu yuzasidan fikrlar yuritilib, bir qancha ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Yevropa mamlakatlarida maxsus pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari yo'q, biroq pedagogika institutlarini o'z ichiga olgan yirik universitetlar faoliyat yuritadi. Yevropa standartlariga ko'ra, ta'lim doirasida turli tarmoqlar va kasblar o'rtasida harakatlanishga imkoniyat ko'plab oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlari orqali ta'minlanadi va ular bo'lajak o'qituvchiga yetarli darajadagi malaka beradi. Finlyandiyaning pedagoglar tayyorlash tizimi ko'p mamlakatlar uchun na'muna bo'lib xizmat qiladi. O'tgan asrning oxirida o'qituvchilar uchun magistratura darajasi minimal talim me'yori deb belgilandi (shu jumladan, pedagoglar uchun ham), bu esa qaysidir darajada mamlakatdagi pedagoglar hurmatini va ijtimoiy maqomini oshirish uchun muhim hissa qo'shdi.<sup>2</sup>

Finlyandiya maktab va maktabgacha ta'lim pedagoglari bo'lish uchun juda qattiq tanlovdan o'tish zarur: pedagogika mutaxassisliklarining eng yaxshi talaba-bitiruvchilari 12% atrofida maktablarga ishga olinadi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir ijobiy jihati, kichik

<sup>2</sup> 1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637- son Qonuni.

guruhlarda o'qitishga ustuvorlik berilishi. Bu shubhasiz, ta'limning yuqori sifatda bo'lishiga olib keladi.

Amerika, Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlarida pedagog kadrlar tayyorlashdagi umumiy tendensiya pedagoglik kasbining nufuzini oshirish, kasbiy malakali pedagogni ish bilan ta'minlash va saqlab qolish, kadrlar siyosatini takomillashtirish, pedagoglarni o'z ustida ishlashga jalb etish, professional jamoalarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy kompetentlikni oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni yo'naltirishdan iboratdir.

### XULOSA

O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlarning navbatdagi bosqichi ilg'or xorijiy tajriba asosida tor doiradagi mutaxassis-pedagoglarni tayyorlashga o'tish hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida tayyorlanadigan pedagog kadrlarni har bir yo'nalish bo'yicha aniq ehtiyojlarni aniqlash asosida amalga oshirishni ob'ektiv zaruratga aylantiradi. I.D.Fruminning fikriga ko'ra, xorijiy mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribasidan foydalanish yoki pedagogik kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik tizimini rivojlantirishning o'ziga xos usulini izlash kerak.

### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026- yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. -Toshkent: O'zbekiston. 2020. -B. 143.
6. Axadjon o'g'li, A. A. (2024). JSTGA A'ZOLIKNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA VA TA'LIMGA IJOBIY TA'SIRI. *Analysis of International Sciences*, 2(1), 95-102.
7. O Maxliyoxon. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *Analysis of International Sciences* 2 (1), 87-91
8. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. *Science and Education*, 2(11), 985-991.

9. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. *Science and Education*, 2(9), 309-314.
10. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 535-542.
11. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(7).
12. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
13. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.
14. Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 162-165.